



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

SOVET HOKIMIYATINING O‘Z SSR OLIY TA‘LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRGAN “TOZALOV” SIYOSATI

Najimidinova Shoxsanam Sharobidin qizi

Andijon davlat universiteti, doktorant
Andijon davlat chet tillari instituti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Maqola XX asrning 20–30-yillardagi O‘zSSR oliy ta‘lim tizimida Sovet hokimiyati tomonidan olib borilgan “tozalov” siyosatini va uning natijalari hamda oqibatlarini tahlil qiladi. Maqolada Turkiston xalq universitetining 1918-yilgi yopilishi va 1918–1920-yillardagi professor-o‘qituvchilar hamda talabalarga nisbatan o‘tkazilgan “tozalov”lar, GPU va O‘rta Osiyo byurosining nazorat choralari, fan va ta‘limda sinov va repressiyalar, 1920–1930-yillardagi partiya va komsomol ta'siri orqali kadrlar “proletarlashtirilishi” misollari va maxsus qarorlar muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Tozalov, repressiya, Turkiston xalq universiteti, proletarlashtirish, partiya nazorati, GPU, akademik erkinlik, ta‘lim sifati.

ПОЛИТИКА «ЧИСТКИ», ПРОВОДИМАЯ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТЬЮ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКСКОЙ ССР

Наджимидинова Шохсанам Шаробидин кизи

Андижанский государственный университет, докторант
Андижанский государственный институт иностранных языков, преподаватель

Аннотация

Статья анализирует политику «чистки», проводимую советской властью в системе высшего образования УзССР в 1920–1930-е годы, а также её результаты и последствия. В статье рассматриваются закрытие Туркестанского народного университета в 1918 году и политику «чистки», проведённые в 1918–1920-е годы в отношении преподавателей и студентов, контрольные меры ГПУ и Бюро Средней Азии, испытания и репрессии в науке и образовании, примеры «пролетаризации» кадров через влияние партии и комсомола в 1920–1930-е годы, а также соответствующие специальные решения.

Ключевые слова: Чистка, репрессия, Туркестанский народный университет, пролетаризация, партийный контроль, ГПУ, академическая свобода, качество образования.

THE “PURGE” POLICY IMPLEMENTED BY SOVIET AUTHORITIES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM OF THE UZBEK SSR

Najimidinova Shoxsanam Sharobidin qizi

Andijan State University, Doctoral student
Andijan State Institute of Foreign Languages, Lecturer

Abstract

The article analyzes the policy of "cleansings" carried out by the Soviet authorities in the higher education system of the Uzbek SSR in the 1920s–1930s, as well as its results and consequences. The paper examines the closure of the Turkestan People’s University in 1918 and the "cleansings" of faculty and students in 1918–1920, the supervisory measures of the GPU and the Central Asian Bureau, trials and repressions in science and education, examples of personnel "proletarianization" through the influence of the Party and Komsomol in the 1920s–1930s, and related special decrees.

Keywords: Cleansing, repression, Turkestan People’s University, proletarianization, party control, GPU, academic freedom, education quality.

XX asrning 20–30-yillarida O‘zbekistonda sovet totalitar tartibotining mustahkamlanishi jarayonida amalga oshirilgan qatag‘on siyosati nafaqat maktab, o‘rta maxsus ta‘lim xodimlarini, balki oliy ta‘lim sohasidagi professor-o‘qituvchilar hamda talabalarni ham chetlab o‘tmadi. Bu borada bolsheviklar dastavval 1918-yil 21-aprelda Toshkent shahrida ochilgan Turkiston xalq universiteti faoliyati, uning rahbariyati hamda professor-o‘qituvchilari tarkibini “yot unsurlar”dan tashkil topgan deb, shu yilning kuzidayoq yopib qo‘ydi.

1918-yil kuzida Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi tomonidan Turkiston xalq universiteti rahbariyati hamda professor-o'qituvchilari tarkibida "tozalov" o'tkazildi hamda uning tarkibi "yot unsurlardan tozalanib", tuzilishi ham qayta ko'rib chiqildi, ko'plab professor-o'qituvchilari universitet faoliyatidan chetlatilgan edi. Undan so'ng ushbu universitetning talaba hamda professor-o'qituvchilari jamoasi 1919-yil yanvar oyidagi Osipov isyonidan so'ng yana bir bor Kommunistik partiya vakillari tashabbusida "tozalovdan" o'tkazilib, ko'plab talabalar talabalar safidan chiqarildi, shu bilan birga, bu isyonga xayrixoh deya universitetning ko'plab professor-o'qituvchilari ham "yot unsurlar" sifatida universitetdan chetlatildilar [1.35.].

Ko'rilayotgan davrda sovet hokimiyati oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashdan ko'zlagan maqsadi nafaqat xalq xo'jaligi va madaniyatning turli sohalari uchun yetuk mutaxassis kadrlarni yetishtirish, balki o'zlarining sotsialistik tuzumi, Kommunistik partiya ishiga sodiq bo'lgan, o'z mafkura va g'oyalariga sodiq kadrlarni tayyorlab chiqarish edi. Bu borada ijtimoiy hayotda o'zgacha fikrlashga bo'lgan har qanday urinish "sinfiy dushman qarshiligi" deb baholangandi. Go'yo "sinfiy dushman" ta'limda, fanda, adabiyot va san'atda, ishlab chiqarishda mavjud bo'lib, uni qidirib topish, barchani shubha ostiga olish, qatag'on domiga tortish birlamchi vazifaga aylangan edi.

1922-yildan sovet hokimiyatining jazolovchi idorasi bo'lmish GPU boshqarmasida ziyolilar faoliyatini nazorat qilish bo'yicha alohida bo'lim faoliyat boshlagan edi. Bo'lim barcha sohalarda hamda hokimiyat bo'g'inlarida, ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ziyolilar to'g'risida ma'lumot to'plardi [2.21.]. Shunday qilib, sovet hokimiyati jamiyatning ilg'or qatlami bo'lgan ziyolilar faoliyatini ham nazoratga olgan edi. Shu davrdan Turkistonda taraqqiyparvarlar va jadidchilik ruhida tarbiyalangan ziyolilar, jumladan, oliy ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlar ta'qib ostiga olina boshlandi. Ularning ma'ruzalari, nashr ettirgan darslik hamda o'quv qo'llanmalari, ilmiy tadqiqot ishlari sinchkovlik bilan kuzatildi.

1920-yillarning boshlaridan oliy o'quv yurtlari talabalarining "siyosiy sofli"ni aniqlovchi "Oliy o'quv yurtlarini tozalash bo'yicha markaziy komissiya" faoliyat ko'rsatgan. Har bir oliy o'quv yurtida mazkur komissiyaning organlari bo'lib, ushbu organlar talabalar qo'mitasi (studkom) deb atalgan. Sovet hokimiyati talabalariga javob bermaydigan, mulkdor sinfga taalluqli bo'lgan talabalarni "fosh" qilish va ularni oliy o'quv yurtlaridan chetlashtirish ushbu qo'mitaga yuklatilgan.

Proletarlashtirish ishiga sovetlar jon-jahdi bilan kirishib ketdiki, ijtimoiy kelib chiqishi shubha ostiga olinganlarga nisbatan qat'iy choralar qo'llana boshlandi. O'rta Osiyo byurosi qarorlaridan birida ham "o'zining ijtimoiy ahvoli va kelib chiqishini yashirgan talabalarni oliy o'quv yurtlaridan chetlashtirish" alohida ta'kidlangan edi [3.4.].

Bu davrda boshqa sohalarda bo'lgani kabi oliy ta'limda ham "yot unsurlar" aniqlangandan keyin ulardan qutulish, choralarni ko'rish ishlari olib borildi. Bunga Akbar Mirzarahimovning talabalikdan qanday chetlatilgani misol bo'la oladi. 1928-yil 20-martda Samarqand viloyati partiya komitetining navbatdagi sessiyasida Dzerjinskiy rayon partiya komiteti kotibi Shestakovich bergan ma'lumotga ko'ra, Samarqand Oliy pedagogika instituti (hozirgi SamDU) talabasi Akbar Mirzarahimovni partiyadan o'chirish masalasi ko'riladi. Unda qayd etilishicha, Akbar Mirzarahimov 1919-yildan komsomol a'zosi bo'lgan, 1926-yil partiya safiga qabul qilingan, biroq partiya olib borayotgan milliy siyosatga qarshi ekanligi uqtiriladi. Akbar Mirzarahimov "O'zbekiston hech kimga qaram emas, mustaqil bo'lishi kerak" degan fikrni targ'ib va tashviq qilgani uchun partiya safidan chiqariladi va talabalikdan o'chiriladi [4.46.].

Ta'lim sohasini "sinfiy dushman"dan tozalash maqsadida hatto maxsus qarorlar ham qabul qilindi. Masalan, VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi 1933-yil 27-martda o'qituvchi kadrlar safini tozalash haqida qaror qabul qildi va uning dastlabki natijalari shu yilning 25-aprelida bo'lib o'tgan O'rta Osiyo bo'yicha partiyaning madaniy sohaga bag'ishlangan kengashida muhokama qilindi [5.27.].

XX asrning 20-30-yillarida oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan "tozalov" tadbirlari natijasida Abdurauf Fitrat, Qayum Ramazon, G'ozim Olim Yunusovlar Toshkent davlat pedagogika institutidan, Otajonov Farg'ona pedagogika institutidan, Po'lat Soliyev, Cho'pon Zoda, Raximov, Burnashev, Fayzullayevlar O'zbek davlat universitetidan, Miyon Buzrukov Buxoro pedagogika institutidan "xalq dushmani", "trotskiychilar", "burjua millatchilari" degan ayblovlar bilan ta'limdan chetlashtirilgan edi.

1927-yilda SSSR sotsialistik qurilishiga yordam beruvchi Fan va texnika xodimlari Butunittifoq assotsiatsiyasi (Varnitso) tashkil qilindi. Toshkentda ham bu assotsiatsiyaning bo'limi ochildi. Sovet hokimiyati oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining tarkibidan o'z g'oyalariga sidqidildan xizmat qiluvchi, sotsialistik mafkurani targ'ib qiluvchi qismini ana shu tashkilot atrofida to'pladi [6.35.]. Assotsiatsiya sotsialistik qurilishga amaliy yordam berish masalalari bilangina emas, balki shu bilan birga, o'z a'zolarini

markscha-lenincha ruhda tarbiyalash, markscha-lenincha mafkurani targ'ib-tashviq qilish va boshqa har qanday g'oyalarga qarshi kurash sohasida faoliyat yuritdi. Assotsiatsiya, ayniqsa, O'rta Osiyo Davlat universiteti professor-o'qituvchilari hamda talabalari orasida keng targ'ibot va tashviqot ishlarini yuritgandi.

Bunday siyosat o'z navbatida oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar hamda talabalar orasida norozilik kayfiyatini ham keltirib chiqarib, ayrim hollarda ular partiya va sovet hokimiyati vakillarining olib borayotgan siyosatlariga ochiqdan-ochiq qarshi chiqishlarini ham keltirib chiqargan. Bunday chiqishlar quyidagi muassasalarda sodir bo'lgan: O'zbekiston pedagogika akademiyasida 1931-yil, Tibbiyot institutida 1930 va 1934-yillarda, Irrigatsiya institutida 1935-yil, Transport institutida 1936-yil, Samarqand qishloq xo'jaligi institutida 1937-yilda ro'y bergan edi [7.69].

Bunday chiqishlardan so'ng bunday oliygohlar rahbariyatlari sovet hokimiyati mas'ullari tomonidan zudlik bilan almashtirilgan. Masalan, O'rta Osiyo davlat universitetida 1930-yilda professor-o'qituvchilar hamda talabalarining bir qismi norozilik chiqishlari natijasida universitet partiya va komsomol tashkilotlari, mahalliy qo'mita tarqatilib, O'rta Osiyo davlat universiteti boshqaruvida o'zgarishlar ro'y berib, rektor va bir qator professor-o'qituvchilarning "iste'fosi" kuzatilgandi [3.10].

Milliy ziyolilarni aksilinqilobchi, millatchi, panturkist, trotskiychi deya oliy ta'lim dargohlaridan chetlashtirilishi oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatiga sezilarli darajada ta'sir qildi, ta'lim sifatining pasayishiga olib keldi. Buyuk davlat shovinizmi va mahalliy millatchilikda ayblangan pedagoglar va ularning shogirdlari bo'lmish talabalarni burjua, millatchi, aksilinqilobchi, trotskiychi qarashlarni ta'limga olib kirgan, kutubxonalariga esa sovet hokimiyatiga qarshi adabiyotlarni olib kirgan, talabalar orasida norozilik kayfiyatini uyg'otgan, milliy munosabatlarda "inqilob"dan oldingi davrdagi qarashlarni yoyishga intilgan, akademik qarzdor talabalarni keyingi bosqichga o'tkazishga ruxsat bergan, mehnat intizomini buzgan buzg'unchilarni qo'llab-quvvatlagan degan ayblovlar qo'yilgan. Masalan, 1933-yilda millatchi pedagog xodimlarning milliy ruhdagi ma'ruzalari ta'sirida bo'lgan talabalar Samarqand Oliy pedagogika akademiyasida rus talabalari o'zbek tilini o'rganishga mensimaslik bilan yondashganlar, rus talabalari yotoqxonalarda o'zbeklar bilan birga yashashga qarshi chiqishgan, o'zbek talabalari rus kitoblaridan voz kechib, majburiy o'zbek kitobini talab qilishgan, shuningdek, o'zbek talabalari rus qizlari bilan birga yashashdan bosh tortganlar [7.69]. — deya professor-o'qituvchilar hamda talabalar orasida "tozalash" ishlari o'tkazilgan.

Eng birinchi navbatda partiya va sovet hukumati avvalo oliy o'quv yurtlari talabalari tarkibida ijtimoiy jihatdan o'z mafkurasiga sodiqlar va ularning farzandlarini qoldirib, ochiqdan-ochiq begona, sinfiy dushman va antisovet unsurlar, ya'ni mehnatsiz daromad topuvchilar hamda ularning farzandlaridan oliy ta'lim dargohlarini "tozalash" uchun kurash olib bordi. Ko'rilayotgan davrda bunday "yot unsur"larni talabalar orasidan izlab topish, o'z ijtimoiy kelib chiqishini yashirgan holda oliy o'quv yurtlarida antisovet va antipartiyaviy g'oyalarni faol targ'ib qilganlarni ayovsiz ta'qib qilish amaliyoti joriy qilindi [9.17.]. Masalan, 1930-yil O'rta Osiyo paxtachilik-irrigatsiyasi politexnika instituti sovxoz-kolxoz fakulteti talabasi Koy Adarova Badigul katta boyning qizi, 1928-yilda ijtimoiy kelib chiqishi sababli O'rta Osiyo davlat universitetiga qabul qilinmagan, Alamkulov qozog'istonlik quloq boyning o'g'li, u ham ijtimoiy kelib chiqishi sababli O'rta Osiyo davlat universitetiga qabul qilinmagan, biroq ular o'z kelib chiqishini yashirib, O'rta Osiyo paxtachilik-irrigatsiyasi politexnika instituti sovxoz-kolxoz fakultetiga o'qishga qabul qilinganligi aniqlanadi [10]. Ularni ijtimoiy kelib chiqishini yashirganlikda ayblab, talabalar safidan chetlashtirilgan edi.

Samarqand Oliy pedagogika instituti talabasi Akbar Mirzarahimov boshchiligida 20 nafarga yaqin talabalar o'z kelib chiqishini yashirgan deya yot unsurlar sifatida institutdan chetlatilgan edi. Akbar Mirzarahimov 1926-yilda o'z nutqlarida O'zbekistonning mustaqillik g'oyalarni ochiqdan-ochiq targ'ib va tashviq qilgani uchun partiyadan o'chirilgan edi [11.9.]. Mansurov To'ychi ishchi fakulteti talabasi 1912-yilda tug'ilgan, uni ham hushyorlikni yo'qotganlikda ayblangan, Andijon shahar partiya komiteti byurosining 1937-yil 9-noyabrdagi qaroriga ko'ra partiya a'zolidan o'chirilgan [8.315.].

Ko'rilayotgan davrda sovet hokimiyati oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan tadbirlar, oliy ta'lim dargohlarini begona sinf vakillaridan, yot unsurlardan "tozalash", ularga qarshi olib borilayotgan kurash faqat qog'ozlarda qolib ketmasligi uchun jamoatchilik nazorati ham kuchaytirilgan edi. Masalan, O'rta Osiyo davlat universiteti rahbariyati barcha fakultet rahbarlariga qat'iy ko'rsatma berib, avval o'quv yurtidan chetlatilgan yoki avvalgi tuzum davrida harbiy xizmatchi bo'lib, O'rta Osiyo davlat universitetida o'qish huquqiga ega bo'lmagan talabalarni darhol talabalar safidan chiqarishga ko'rsatma berdi. Ular darslarda qatnashib, imtihonlar va zachyotlar topshirishda davom etishlari kadrlar tayyorlashdagi partiya

olib borayotgan sinfiy siyosatga putur yetkazayotganini qayd etib o‘tiladi [8.58.].

Sovet hokimiyatining ko‘rilayotgan davrda sinfiy dushman va yot unsurlardan oliy ta‘lim muassasalarini “tozalash” siyosiy kompaniyasini amalga oshirayotgan davrida oliy o‘quv yurtlari ma‘muriyati va jamoat tashkilotlari beasos va shoshma-shosharlik bilan qarorlar qabul qilib, kelib chiqishi ishchi, dehqon farzandlarini ham yot unsur deya oliygohlardan chetlatish hollari ham ro‘y bergan. Masalan, O‘rta Osiyo davlat universitetidan asosiz ma‘lumotlar asosida talabalar safidan chiqarib yuborilgan talaba K. Salimovning ishi bunga misol bo‘la oladi. Uning norozilik shikoyati asosida SSSR XKS qoshidagi O‘zbekiston SSR bo‘yicha Nazorat-taftish komissiyasi tomonidan qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazildi va natijada uning otasi hech qachon “quloq” bo‘lmaganligi, avvaliga saylov huquqidan mahrum etilgani, lekin keyinchalik Turkiston tuman saylov komissiyasi tomonidan saylov huquqi tiklangani aniqlandi. Ushbu ma‘lumotlar asosida nazorat komissiyasi K. Salimovni talabalikka qayta tiklash, uni talabalar safidan chiqarish to‘g‘risidagi oldingi komissiya qarorini bekor qilish va uni ijtimoiy kelib chiqishini yashirganlik uchun berilgan ma‘muriy jazoni bekor qilish haqidagi o‘z qarorini qabul qiladi. Shuningdek, O‘rta Osiyo davlat universiteti ma‘muriyatiga bundan keyin o‘z faoliyatida tekshirilmagan ma‘lumotlar asosida talabalarga nisbatan keskin jazo choralarini qo‘llashga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi haqida ko‘rsatma berilgan edi [12.190.].

O‘rta Osiyoning eng yirik oliy o‘quv yurtlari joylashgan shahar — Toshkentda 1933-yil 7-iyul kuni Kafanov klubida shahar partiya faollari yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda shahar partiya qo‘mitasi kotibining hisoboti tinglandi. Yig‘ilishda 15 kishi ma‘ruza qiladi va yig‘ilish yakunida O‘zbekiston KP Markaziy komitetining birinchi kotibi nutq so‘zladi. Bu yig‘ilishda ham asosiy e‘tibor Toshkent shahridagi oliy o‘quv yurtlarida siyosiy-tarbiyaviy ishlarning holati, oliy ta‘lim muassasalarini sovet mafkurasiga yot qarashlarga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchi hamda talabalardan tozalash masalasi ko‘rib chiqiladi [13]. Partiya va komsomol faollarining bu boradagi faoliyatidagi kamchiliklar tanqid qilinib, talabalar orasida siyosiy-tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish bo‘yicha bir qator muhim takliflar ilgari surildi.

Oliy ta‘lim tizimida sovet hokimiyati o‘z mafkurasini mustahkamlash va oliy ta‘limga sovet tuzumi uchun yot bo‘lgan boshqa sinf vakillarining kirib qolishini oldini olish masalalariga bag‘ishlangan yana bir yig‘ilish 1937-yil 4–5-iyul kunlari O‘zbekiston SSR KP Markaziy Komiteti huzurida oliy o‘quv yurtlari partiya qo‘mitalari kotiblari ishtirokida bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda respublikaning oliy ta‘lim muassasalarida tarbiyaviy va madaniy-ommaviy ishlarning ahvoli, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari hamda talabalar orasida o‘tkazilgan “tozalov”lardan so‘ng siyosiy-tarbiyaviy ishlar sezilarli darajada yaxshilangani, talabalarining siyosiy faolligi va ongliligi oshgani qayd etilgan edi. Shu bilan birga, siyosiy-tarbiyaviy tadbirlarga yoshlarning butun qatlamini qamrab olinmayotganligi, oliy o‘quv yurtlari komsomol tashkilotlari yoshlar ishiga yetarli darajada rahbarlik qila olmayotganligi, madaniy-ommaviy tadbirlarning kam hamda saviyasi past tashkil etilayotgani kabi kamchiliklar ham ko‘rsatib o‘tilgan edi [14.1.].

1930-yilda butun O‘zbekiston SSR bo‘ylab ovoza bo‘lgan yana bir oliy ta‘lim bilan bog‘liq hodisa — O‘rta Osiyo davlat universiteti bitiruvchi uch talabasining ishi edi. Ular o‘qishni tamomlaganlaridan so‘ng taqsimot bo‘yicha respublikaning chekka hududlaridagi irrigatsiya qurilish ishlariga borib ishlashdan bosh tortgan va 240 rubllik maosh o‘rniga 320 rubl maosh berilishini hamda boshqa qo‘shimcha imtiyozlarni talab qilgan edilar. Talabalarining ikki nafari komsomol a‘zosi bo‘lgan edi. Shu bois ularning “ishi” O‘rta Osiyo davlat universiteti talabalar o‘rtasida muhokama qilinib, talabalar ularni darhol universitet talabalar safidan chetlatishni talab qilishi uyushtiriladi, komsomol tashkiloti esa ularni komsomoldan haydash haqida rezolyutsiya qabul qildi [15.24.]. Ularning “aybi” o‘z haq-huquqlarini talab qilganida edi.

Xulosa qilib aytganda, 20–30-yillarda oliy ta‘lim tizimida kechgan “tozalov” jarayonlari ilm-fanni rivojlantirishga emas, balki uni totalitar tuzum manfaatlariga xizmat qildirishga qaratilgan bo‘lib, bu O‘zbekiston ilm-fani va milliy ziyolilari tarixiga yetkazilgan ulkan zarba bo‘ldi. Ijtimoiy kelib chiqish mezonlari asosida amalga oshirilgan bu tadbirlar mamlakatning intellektual salohiyatini zaiflashtirdi va ta‘lim tizimini uzoq yillar davomida siyosiy mafkura malayiga aylantirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. XX let SAGU. – Toshkent, 1940.
2. Мчелин Л. КГБ. Председатели органов госбезопасности. Рассекреченные судьбы. – Москва: Центрполиграф, 2001.
3. O‘z MA, R-368-fond, 3-ro‘yxat, 11-yig‘ma jild.
4. O‘z R PAA, 58-fond, 74-ro‘yxat, 193-yig‘ma jild.

5. Галузо П. Очередные задачи школьного строительства в республиках Средней Азии // Социалистическое строительство в Средней Азии. – 1934.
6. O‘z MA, R-34-fond, 1-ro‘uxat, 14-yig‘ma jild.
7. O‘z R PAA, 58-fond, 7-ro‘uxat, 725-yig‘ma jild.
8. Шамсутдинов Р. va boshqalar. Qatag‘on qurbonlari хотира kitobi. Andijon viloyati (1865–1991-yillar). – 1-qism. – Toshkent: Akadernashr, 2021.
9. O‘z R PAA, 58-fond, 19-ro‘uxat, 3443-yig‘ma jild.
10. Гоните чуждых // Комсомолец Востока. – 17 марта 1930 г. – № 31 (396).
11. O‘z MA, R-368-fond, 3-ro‘uxat, 9-yig‘ma jild.
12. O‘z R PAA, 58-fond, 11-ro‘uxat, 1038-yig‘ma jild.
13. На партактиве вузов Ташкента // Комсомолец Востока. – 10 июня 1933 г.
14. O‘z R PAA, 58-fond, 13-ro‘uxat, 1245-yig‘ma jild.
15. Поход за хлопок // Красное студенчество. – 1930. – № 11.